O‘zbekiston Respublikasi
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

60320400 – Kutubxona axborot faoliyati (Axborot-kutubxona texnologiyalari) bakalavriat ta’lim yo‘nalishining malaka talablari

ЎзР ОЎМТВ
Буйруқ № 344
"7" 08 2023 йил

Toshkent-2023

ISHLAB CHIQILGAN:

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil «7» 08 dagi 344 - sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

JORIY ETILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me’yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r		bet
1.	***60320400 – Kutubxona axborot faoliyati (Axborot-kutubxona texnologiyalari)*** **bakalavriat ta’lim yo‘nalishining umumiy tasnifi**	4
1.1.	Qo‘llanish sohasi	4
1.1.1.	*60320400–Kutubxona-axborot faoliyati (Axborot-kutubxona texnologiyalari)* ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha malaka talabining qo‘llanilishi	4
1.1.2.	*Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari*	4
1.2.	*60320400–Kutubxona-axborot faoliyati (Axborot-kutubxona texnologiyalari)* ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi	4
1.2.1.	*60320400–Kutubxona-axborot faoliyati (Axborot-kutubxona texnologiyalari)* ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari	4
1.2.2.	*60320400–Kutubxona-axborot faoliyati (Axborot-kutubxona texnologiyalari)* ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining ob’ektlari	4
1.2.3.	*60320400–Kutubxona-axborot faoliyati (Axborot-kutubxona texnologiyalari)* ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari	5
1.2.4.	*60320400–Kutubxona-axborot faoliyati (Axborot-kutubxona texnologiyalari)* ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining vazifalari	5
2.	***60320400 – Kutubxona axborot faoliyati (Axborot-kutubxona texnologiyalari)*** **ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlarning kasbiy komepetensiyalariga qo‘yiladigan talablar**	6
2.1.	Umumiy kompetensiyalar	6
2.2.	Kasbiy kompetensiyalar	7
2.3.	Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta’minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar	7
2.3.1.	*60320400 – Kutubxona axborot faoliyati (Axborot-kutubxona texnologiyalari) bakalavriat* ta’lim yo‘nalishi o‘quv rejasidagi fanlar mazmuniga qo‘yiladigan umumiy talablar.	8
2.3.2.	*60320400 – Kutubxona axborot faoliyati (Axborot-kutubxona texnologiyalari) bakalavriat* ta’lim yo‘nalishi o‘quv rejasidagi fanlarni quyidagicha klassifikatsiyalash (tasniflash) mumkin	8
2.4.	Kvalifikatsiya	9
	Bibliografik ma’lumotlar	10
	Kelishuv varag‘i	11

1. *60320400 – Kutubxona axborot faoliyati (Axborot-kutubxona texnologiyalari)* bakalavriat ta'lim yo'nalishining umumiy tasnifi

60320400 – Kutubxona axborot faoliyati (Axborot-kutubxona texnologiyalari) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi, kechki, sirtqi va masofaviy ta'lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta'lim shakllari bo'yicha o'kitish kredit-modul tizimi asosida tashkil kilinadi. Kunduzgi ta'limda bakalavriat dasturining me'yoriy muddati 4 yil.

1.1 Qo'llanish sohasi.

1.1.1. *60320400 – Kutubxona axborot faoliyati (Axborot-kutubxona texnologiyalari)* ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talabining qo'llanilishi.

Malaka talabi *60320400 – Kutubxona axborot faoliyati (Axborot-kutubxona texnologiyalari)* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim muassasalari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

- mazkur ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim muassasining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;
- ta'lim yo'nalishiningo'quv rejasi va o'quv dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim muassasisininog talabalari;
- bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;
- ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;
- oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;
- oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat kiluvchi vakolatli davlat organlari;
- kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;
- oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirayotgan abiturientlar, ularning ota- onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2 *60320400 – Kutubxona axborot faoliyati (Axborot-kutubxona texnologiyalari)* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi.

1.2.1. *60320400 – Kutubxona axborot faoliyati (Axborot-kutubxona texnologiyalari)* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari.

60320400 – Kutubxona axborot faoliyati (Axborot-kutubxona texnologiyalari) ta'lim yo'nalishi – O'zbekiston Milliy kutubxonasi, axborot-kutubxona markazlari, axborot resurs markazlari, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining kutubxonalari hamda fuqarolar o'zini-o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va tijorat tashkilotlarining kutubxonalarida, hamda arxiv muassasalarida, axborotlashtirish sohasining rivojlanish qonuniyatlari va zamonaviy konsepsiyalari asosida ishlab chiqish va amalga oshirish bilan bog'liq kompleks masalalarning kasbiy soxalar majmuasini kamrab oladi.

1.2.2. *60320400 – Kutubxona axborot faoliyati (Axborot-kutubxona texnologiyalari)* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining ob'ektlari:

- axborot-kutubxona va arxiv tizimlari va tarmoqlari;
- fan va ta'limga tegishli ma'lumotlar bazalari;
- axborot-kutubxona va arxiv tizimlarining dasturiy ta'minoti;
- axborot-kutubxona resurslari, axborot-kutubxona jarayonlari;

- davlat boshqaruv organlari, soha korxonalarida zamonaviy boshqaruv tizimini tashkil etish, tashkiliy tuzilmalarni optimallashtirish, boshqaruv samaradorligini oshirish, mehnatni rag'batlantirish jarayonlari.

60320400 – Kutubxona axborot faoliyati (Axborot-kutubxona texnologiyalari) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavriat bitiruvchilari fan sohasidagi bakalavriat ta'lim yo'nalishini tamomlagandan so'ng, axborot-kutubxona muassasalarida, nodavlat notijorat ta'lim tashkilotlari kutubxonalarida zamonaviy texnologiyalaridan foydalangan holda kitobxonlarga xizmat ko'rsatish, axborot resurslarining ma'lumotlar bazalari va bankini yaratish hamda foydalanuvchilarga taqdim etish kabi kompleks masalalarni yechish huquqiga ega bo'ladi.

1.2.3. *60320400 – Kutubxona axborot faoliyati (Axborot-kutubxona texnologiyalari)* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari:

- *loyihaviy-konstruktorlik faoliyati;*
- *ishlab chiqarish-texnologik faoliyati*
- *tashkiliy-boshqaruv;*
- *foydalanish va servis xizmati ko'rsatish faoliyati;*
- *ilmiy-tadqiqot;*
- *konsalting xizmati.*

1.2.4. *60320400 – Kutubxona axborot faoliyati (Axborot-kutubxona texnologiyalari)* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining vazifalari.

60320400 – Kutubxona axborot faoliyati (Axborot-kutubxona texnologiyalari) ta'lim yo'nalishi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, ob'ektlari va turlariga muvofiq, bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

Loyihaviy-konstruktorlik faoliyatida

– axborot-kutubxona tizimlarini loyihalashtirish;

– simsiz texnologiyalar, dasturiy tizimlar va vositalarni, hamda intellektual tizimlarida ishlash hamda boshqa kasbiy faoliyat turlarini bajarish;

– bajarilayotgan tajriba-konstruktorlik va amaliy ishlar mavzusi bo'yicha informatsion va imitatsion modellarni ishlab chiqish va tadqiqot qilish;

– loyihaviy va dasturiy hujjatlarni ishlab chiqish;

– amaliyotda axborot-kutubxona va arxiv texnologiyalarining xalqaro va kasbiy standartlarini, zamonaviy paradigma va uslubologiyalarni, instrumental va hisoblash vositalarini tayyorgarlik ixtisosligiga mos ravishda qo'llash.

Ishlab chiqarish-texnologik faoliyatda

– axborot-kutubxona va arxiv faoliyati bo'yicha zamonaviy texnologik jarayonlarni ishlab chiqish va ularni qo'llash;

– elektron katalog ma'lumotlar bazasini shaklantirish;

– avtomatlashtirilgan axborot-kutubxona tizimini boshqarish;

– elektron kutubxona yaratish va yuritish;

– kasbiy etika kodeksiga rioya qilish.

Tashkiliy-boshqaruv faoliyatda:

– axborot-kutubxona va arxiv faoliyati bo'yicha normativ-uslubiy yo'riqnomalar ishlab chiqish va joriy qilish;

– axborot-kutubxona va arxiv muassasalarini boshqarishga oid huquqiy hujjatlar ishlab chiqish va joriy qilish;

– axborot-kutubxona va arxiv muassasalari xodimlari va foydalanuvchilarga mo'ljallangan bibliografik qo'llanmalar, ko'rsatkichlar yaratish;

– xizmat ko'rsatish jarayonlarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan axborot-kutubxona resurslarini rejalashtirish;

– axborot-kutubxona va arxiv xizmati ko'rsatishga zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalarini tatbiq qilish;

–atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi borasida ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilish.

Foydalanish va servis xizmati ko‘rsatish faoliyatida:

–axborot-kutubxona muassasalarida xizmat ko‘rsatish: axborot, ma’lumot-bibliografik, virtual-ma’lumot xizmatlari hamda ilmiy-uslubiy ta’minotni tashkil etish;

–axborot-kutubxona muassasalarida qo‘llanilayotgan axborot texnologiyalari va boshqa texnologik jarayonlarga doir dasturlar ishlab chiqish va qo‘llash.

Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:

–ilmiy-tadqiqot institutlari va ilmiy markazlarda axborotni himoyalashga oid mavzularda ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishda ishtirok etish;

–internet tarmog‘ida eng yangi ilmiy yutuqlar haqidagi ma’lumotlarni maqsadga yo‘nalgan holda qidirish va topish;

–Kutubxona-axborot faoliyatiga oid ilmiy to‘plamlar, mahalliy va chet el ilmiy-tadqiqot yutuqlarini o‘rganish;

–kasbiy faoliyat ob’ekti yo‘nalishiga mos yangi ilmiy natijalar, ilmiy adabiyotlar yoki ilmiy-tadqiqot loyihalarini o‘rganish;

–ilmiy-tadqiqot institutlari va ilmiy markazlarda eksperimental tadqiqotlar o‘tkazish, ularning natijalariga ishlov berish, baholash va boshqa kasbiy faoliyat turlarini bajarish;

–ilmiy-tadqiqot ishlanmalarini tayyorlash, soha adabiyotlari ekspertizasini amalga oshirishda qatnashish;

–tadqiqot natijalari va ishlanmalarini tatbiq etishda qatnashish;

–ma’lumotlarni jamlash, qayta tayyorlash, mavzu bo‘yicha ilmiy ma’lumotlarni tizimli tahlil qilish.

Konsalting xizmati faoliyatida:

–axborot kutubxona muassasalarida mutaxassislarning faoliyati, axborot-kutubxona xizmati bo‘yicha mavjud holatlarning tahliliy sharhini ishlab chiqish;

–tayyorgarlik ixtisosligiga mos mavzu bo‘yicha konsalting xizmatlarini ko‘rsatish.

2. *60320400 – Kutubxona axborot faoliyati (Axborot-kutubxona texnologiyalari)* ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar

2.1. Umumiy kompetensiyalar

- davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy-iktisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;
- mantikiy fikrlashlarni rivojlantirish, to‘g‘ri xulosa chiqarish, matematik madaniyatni shakllantirish;
- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo‘yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo‘lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;
- axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatida qo‘llay bilishi, axborotlarni yig‘ish. saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo‘lishi, faoliyatida mustakil asoslangan karorlar qabul qila olish;
- yangi bilimlarni mustakil egallay bilishi, o‘z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil kila olish;
- sog‘lom turmush tarzi va unga amal kilish zaruriyati to‘g‘risida tassavvurga ega bo‘lish.

2.2. Kasbiy kompetensiyalar

- me’yoriy-hukukiy hujjatlarni izlash, tahlil kilish va ulardan kasbiy faoliyatida foydalanish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;
- tashkiliy tuzilmalarni optimallashtirish, kadrlarni boshqarish strategiyasini qo‘llash, tadbirlarni rejalashtirish va amalga oshirish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;

- muzokaralar, uchrashuvlar, ishbilarmonlik yozishmalarini olib borish va onlayn aloqalarni amalga oshirishni bilish;

- strategik tahlil qilish, raqobatdoshlikni ta'minlashga qaratilgan tashkilot strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish ko'nikmalariga ega bo'lish;

- axborotni to'plash, qayta ishlash, saqlash, qidirish, uzatish;

- axborot-kutubxona xizmatlarini ko'rsatish;

- axborot-kutubxona fondlarini shakllantirish;

- axborot-kutubxona muassasalarining ish jarayonlarini avtomatlashtirish;

- axborot-kutubxona tizimlarini loyihalashtirish;

- elektron kutubxona yaratish: elektron katalog, to'liq ma'lumotlar bazalarini shakllantirish, yig'ma elektron katalog yaratish;

- korporativ axborot-kutubxona tizimlari va tarmoqlari orqali fan va ta'limga tegishli ma'lumotlarga ega bo'lishni ta'minlash;

- axborot-kutubxona muassasalari faoliyatini tashkil qilish va boshqarish;

- axborot-kutubxona faoliyati sohasini rivojlantirishga oid ilmiy-tadqiqot faoliyatini olib borish;

- o'rta maxsus ta'lim tizimida Kutubxona-axborot faoliyati ta'lim yo'nalishi fanlaridan dars berish.

2.3 Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar

Talabalar umumiy va kasbiy kompetensiyalar, bilim va ko'nikmalarni egallashi o'quv rejasiga mantiqiy ketma-ketlikda kiritiladigan **majburiy va tanlov** fanlarni o'zlashtirish, amaliyotlarni o'tish hamda boshqa o'quv mashg'ulot va akademik vazifalarni bajarish yordamida amalga oshiriladi.

Majburiy fanlar - bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bevosita umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashga qaratilgan, zarur tayanch bilim va ko'nikmalarni ta'minlaydigan fanlar majmuasidir.

Tanlov fanlari - ta'lim yo'nalishi doirasida ixtisoslashuvdan kelib chikib chuqurlashtirilgan, qo'shimcha bilim berish, bevosita ixtisosligi uchun zarur kompetensiyalarni kengaytirishga xizmat qiladigan, shuningdek, talabaning shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondashuvlari va iqtidorini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan fanlar majmuasidir.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha quyidagi amaliyotlar o'tkaziladi:

malakaviy amaliyot - umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chikarish) jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga karatiladi;

ishlab chiqarish amaliyoti-soha korxonasida nazariy bilimlarni amaliyot orqali mustahkamlash va xizmat sifatini oshirishga karatiladi.

2.3.1. *60320400 – Kutubxona axborot faoliyati (Axborot-kutubxona texnologiyalari) bakalavriat* ta'lim yo'nalishi o'quv rejasidagi fanlar mazmuniga qo'yiladigan umumiy talablar

***60320400–Kutubxona-axborot faoliyati bakalavriat* ta'lim yo'nalishi uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha soatlar va kreditlar:**

O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Kunduzgi ta'lim shakli uchun fanlarga ajratiladigan soat	Ajratilgan kredit
Majburiy fanlar	4620	154
Tanlov fanlar	1800	60
Malakaviy amaliyot	360	12

Yakuniy davlat attestatsiyasi	420	14

***2.3[illegible]. 60320400 – Kutubxona axborot faoliyati (Axborot-kutubxona texnologiyalari) bakalavriat* ta'lim yo'nalishi o'quv rejasidagi fanlarni quyidagicha klassifikatsiyalash (tasniflash) mumkin**

***60320400 – Kutubxona axborot faoliyati (Axborot-kutubxona texnologiyalari) bakalavriat* ta'lim yo'nalishi bo'yicha ta'lim dasturining tuzilishi:**

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklari va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
1.00		**Majburiy fanlar**	**4620**	**154**	**1-7**
1.01	H[illegible]ST14MBK	O'zbekistonning eng yangi tarixi	**120**	**4**	1
1.02	R[illegible]LS14MBK	Dinshunoslik	**120**	**4**	2
1.03	P[illegible]IL14MBK	Falsafa	**120**	**4**	2
1.04	F[illegible]LG14MBK	Xorijiy til	**240**	**8**	1,2
1.05	C[illegible]LC18MBK	Hisob(Calculus)	**180**	**6**	1
1.06	P[illegible]YS16MBK	Fizika	**300**	**10**	1,2
1.07	D[illegible]EQ14MBK	Differensial tenglamalar	**120**	**4**	2
1.08	D[illegible]ST16MBK	Diskret tuzilmalar	**120**	**4**	2
1.09	P[illegible]OG16MBK	Dasturlash	**360**	**12**	1,2
1.10	A[illegible]WR12MBK	Akademik yozuv	**120**	**4**	1
1.11	D[illegible]BS16MBK	Ma`lumotlar bazasi	**180**	**6**	3
1.12	C[illegible]SF16MBK	Kiberxavfsizlik asoslari	**180**	**6**	3
1.13	D[illegible]SA16MBK	Ma'lumotlar tuzilmasi va algoritmlar	**180**	**6**	3
1.14	W[illegible]BI16MBK	Web ilova yaratish	**180**	**6**	3
1.15	C[illegible]RG16MBK	Kompyuterni tashkil etish	**180**	**6**	3
1.16	C[illegible]NT16MBK	Kompyuter tarmoqlari	**180**	**6**	3
1.17	F[illegible]AI16MBK	Sun'iy intellekt asoslari	**180**	**6**	4
1.18	LI[illegible]S16MBK	Kutubxonashunoslik	**180**	**6**	4
1.19	CT[illegible]CL16MBK	Kataloglashtirish va klasifikatsiyalash	**180**	**6**	5
1.20	CO[illegible]SN16MBK	Koleksiyalarni yaratish	**120**	**4**	6
1.21	LD[illegible]BD16MBK	Kutubxonalar uchun ma'lumotlar bazasini loyihalash	**240**	**8**	5
1.22	LA[illegible]DM16MBK	Kutubxonana boshqarish	**180**	**6**	7
1.23	PI[illegible]ST16MBK	Ehtimollik va statistika	**180**	**6**	4
1.24	O[illegible]YS16MBK	Operatsion tizimlar	**180**	**6**	5
1.25	IN[illegible]DP12MBK	Individual loyiha	**120**	**4**	6
1.26	EN[illegible]BS16MBK	O'rnatilgan tizimlar	**180**	**6**	6
1.27	PE[illegible]ED10MBK	Jismoniy tarbiya*			
2.00		**Tanlov fanlar**	**1800**	**60**	
2.00		Tanlov fanlar (9 ta fan)	**1800**	**60**	5,6,7,8
		Jami	**6420**	**214**	**1-8**
		Malakaviy amaliyot (ishlab chiqarish va bitiruv oldi amaliyotlar)	360	12	6,8
		Yakuniy davlat attestatsiyasi	420	14	8

			Jami	**780**	**26**	
			Hammasi	**7200**	**240**	

Izoh: Jismoniy tarbiya fakultativ fan

2.4. Kvalifikatsiya: axborot-kutubxona texnologiyalari bo‘yicha mutaxassis.

Bibliografik ma'lumotlar

UDK 002: 651. 1/7 Guruh T 55

OKS 01.040.01

Tayanch so'zlar:

Analitik tizimlar, axborot, axborot-kutubxona muassasasi, axborot-kutubxona markazi, axborot-resurs markazi, axborot-kutubxona xizmati, jahon axborot resurslari, ilmiy ta'limiy resurslar, elektron resurslar, axborotni qayta ishlash, klassifikatsiyalash, ma'lumotni qidirish, analitik, elektron katalog, axborot-kutubxona fondi, korporativ tizimlar va tarmoqlar, loyihalashtirish, standartlashtirish, axborot texnologiyalari, axborot tizimlari, dasturlash, dasturlash texnologiyalari, global va lokal tarmoqlar, kompyuter tizimlari, interfeys, ma'lumotlar tuzilmalari, tizimli dasturlar, ma'lumotlar bazalari, ma'lumotlar modellari, operatsion tizimlar, fayl tizimlari, xotira, virtual jarayonlar, elektron kutubxona, virtual muhit, boshqarish, boshqarish ob'ektlari, axborot xavfsizligi, internet xavfsizligi, tizimli tahlil, tizim tuzilmasi, ob'ektli dasturlash.

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari hamda kadrlar iste'molchilari

ISHLAB CHIQILGAN:

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

Rektor _____ **prof. B. Maxkamov**

2023 yil «24» 07

M.O'.

KELISHILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi

Direktor _____ **Sh.Yakubov**

2023 yil «25» 07

M.O'.

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti

Rektor _____ **prof. Sh. Qudratxo'ja**

2023 yil «25» 07

M.O'.

Kompyuter-Osiyo ilmiy texnika parki

Direktor _____ **A. Xundibayev**

2023 yil «25» 07

M.O'.

Respublika ilmiy pedagogika kutubxonasi

Direktor _____ **D. Ganiyeva**

2023 yil «25» 07

M.O'.

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti 60320400- Kutubxona axborot faoliyati (Axborot-kutubxona texnologiyalari) ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablari va o'quv rejasining ishlab chiquvchilar, turdosh oliy ta'lim muassasalari va asosiy kadrlar iste'molchilari o'rtasida

KELISHUV DALOLATNOMASI

Toshkent sh. "25" 07 2023 yil

Biz quyida imzo chekuvchilar Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti rektori prof. B.Maxkamov, O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti rektori Sh. Qudratxo'jaev, Kompyuter –Osiyo ilmiy texnika parki direktori A.Xundibaev, Respublika ilmiy pedagogika kutubxonasi direktori D.Ganieva birgalikda Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetida ishlab chiqilgan quyidagi magistratura mutaxassisligining malaka talablari va o'quv rejasi mazmuni bilan tanishib chiqib, qelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:

60320400- Kutubxona axborot faoliyati (Axborot –kutubxona texnologiyalari) ta'lim yo'nalishi

Malaka talablari hamda o'quv rejani ishlab chiqilishida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 5847-son farmoni, 2017-yil 20-apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-2909-son, 2017-yil 27-iyuldagi "Oliy ma'lumotli mutaxasislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3151-son, 2018-yil 5-iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtiroqini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3775-son qarorlari va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 15-iyundagi "2023/2024 o'quv yili uchun davlat oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari to'g'risida"gi F-31-son farmoyishiga hamda oliy ta'lim sohasini tartibga soluvchi boshqa me'eriy-huquqiy hujjatlar, shuningdek, xalqaro talablarga asoslangan.

Mazkur malaka talablari va o'quv rejalarining ishlab chiqilishida asosiy kadrlar iste'molchilari tomonidan qo'yilgan talablar ham inobatga olingan. Ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablari o'quv reja va fan dasturlari hamda boshqa hujjatlarni yaratish uchun asos bo'lib hisoblanadi.

Ishlab chiqarilgan malaka talablari va o'quv rejani o'rnatilgan tartibda tasdiqqa tavsiya etish mumkin.

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti rektori, professor **B. Maxkamov**

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti rektori, professor **Sh. Qudratxo'ja**

Kompyuter-Osiyo ilmiy texnika parki direktori **A. Xundibayev**

Respublika ilmiy pedagogika kutubxonasi direktori **D. Ganiyeva**